

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
PEDAGOGIKA	
B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
Ким Владимир Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов	15
А.Н.Амонов Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста.	20
N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
O.Q.Xasanova Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati	28
M.E.Abdullayev O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari	34
B.Sh.Turg'unboyev Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar	37
X.A.Kadirova Tibbiyot oliygohlarida tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori	49
D.K.Karimov Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
K.F.Nazarova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
J.Dj.Sultanov Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
X.X.Xasanbayev Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
O'.R.Maxmudov O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
I.Y.Masharipov Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili.....	71
F.O.Qo'ysinova Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi	75
R.X.Ibragimov Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish	78
A.Tuychiyev Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA
ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLARNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI****ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В
РАЗВИТИИ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У УЧАЩИХСЯ****EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF ETHNOPEDAGOGICAL VALUES IN THE
DEVELOPMENT OF A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN STUDENTS****Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich¹**¹Andijon davlat universiteti, Umumiy pedagogika kafedrası v.b.dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqola o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga qaratilgan etnopedagogik qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatlariga bag'ishlangan. Hususan, o'zbek xalqining tarbiyaviy qarashlari ifodalangan xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, maqollar, matallar, aytimlar, afsonalar, mif va hikoyalarni tarbiyaviy axamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена воспитательным возможностям этнопедагогических ценностей, направленных на развитие у учащихся чувства национальной гордости. В частности, оно направлено на раскрытие воспитательного значения сказок, былин, песен, пословиц, поговорок, легенд, мифов и рассказов, являющихся образцами народного устного творчества, выражающих просветительские взгляды узбекского народа.

Abstract

This article is devoted to the educational possibilities of ethnopedagogical values aimed at developing a sense of national pride in students. In particular, it is aimed at revealing the educational significance of fairy tales, epics, songs, proverbs, sayings, legends, myths and stories, which are examples of folk oral creativity, expressing the educational views of the Uzbek people.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, etnopedagogika, qadriyat, ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, maqollar, matallar, aytimlar, afsonalar, mif, rivoyat va hikoya.

Ключевые слова: национальная гордость, этнопедагогика, ценность, сказки, былины, песни, пословицы, поговорочки, мифы, предание, повествование и история.

Key words: national pride, ethnopedagogy, value, fairy tales, epics, songs, proverbs, sayings, myths, legend, narrative and history.

KIRISH

Ajdodlarimiz turli vositalar orqali voqelikka o'z munosabatlarini bildirganlar. Ularda insonning munosabatlari va ehtirolari o'z ifodasini topgan. Dastlab o'z munosabatlari va tuyg'ularini turli ovozlari, harakatlar yordamida ifodalagan bo'lsa, keyinchalik so'zlar yordamida o'z fikrlari va qarashlarini bayon qilgan. Asta-sekin moddiy olamning yaralishi, undagi voqea-hodisalar haqida turli afsonalar, ertaklar afsonalar, hikoyalar to'qiganlar. Ularda insonning hayratlari, munosabatlari, tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Shaxslararo munosabatlar, ijobiy va salbiy qarashlar ajdodlarimizning qahramonliklari, jasorati, faxru iftixori haqida qo'shiqlar, afsonalar, dostonlar yaratilgan. Ota-bobolarimiz yosh avlodni tarbiyalashda huddi manashu vositalardan unumli foydalanganlar. Mazkur etnopedagogik qadriyatlar jamoaviy turmush sharoitida yoshlarni ahloqiy tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy g'urur, fidoyilik, qabila sha'ni uchun kurashga undovchi asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Bu vositalar xalq og'zaki ijodining yorqin namunalari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'p asrlar davomida o'zbek xalqi tasavvurlari bilan bog'liq hollarda milliy urf-odatlar vujudga kelgan. Ularda xalq donishmandligi, inson va tabiat orasidagi mantiqiy aloqadorlik o'z ifodasini topgan. Miflarda olamning yaralishi haqida hikoya qilinadi. Mif (yunoncha myfhos – so'z, afsona, rivoyat)[1,671] ma'nolarini anglatadi. Miflar ajdodlarimizning ibtidoiy olam haqidagi tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ular olamning vujudga kelishi, osmon jismlarining paydo bo'lishi, o'simlik va hayvogot dunyosining yaralishi, tabiiy hodisalarni keltirib chiqaradigan sabablar, afsonaviy qahramonlar haqidagi millatimiz vakillarining e'tiqodiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan. Shuning uchun ham miflardagi ezgulik g'alabasi o'quvchi yoshlarda g'urur tuyg'usini shakllantirishga, tarbiyalashga xizmat qiladi.

Muhim etnopedagogik manba hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti turk" asari o'zida xalq og'zaki ijodining ko'plab namunalarini mujassamlashtirish bilan bir qatorda, ularni ma'nosini ifodalovchi atamalarni ham qamrab olgan. Masalan "mif" tushunchasi "sav" [2,357] so'zi bilan ifodalangan. "Asotir" so'zi ham "mif" tushunchasini anglatadi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaraltilgan ilk mif namunalarini Avesto [3,115] kitobida berilgan.

Miflarning yorqin namunalari "O'g'iznoma" kitobida ham aks etgan. "O'g'iznoma"da xalq hayotiga oid voqealar qisqa, tushunarli tarzda bayon etilgan. O'g'iz mard, jasur qahramon sifatida gavdalangan. Ushbu kitobda o'g'iz qahramonlik, jasorat va milliy g'urur sifatida ifodalangan. Xalq yovuz kuchlardan qutilish maqsadida o'g'iz kabi qahramonlar obrazini yaratgan.

O'zbek miflarida ajdodlarimizning ko'p asrlik tarixi, intilishlari, ezgu niyatlari, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi, bu yo'lda xalq tomonidan yaratilgan qahramonlarning yetakchilik qilishi bayon etilgan.

Afsona forscha so'z bo'lib – hikoya, naql, uydirma[4,118] degan ma'nolarni anglatadi. Afsonalarda xalq tafakkuri, fantaziyasi o'z ifodasini topgan bo'lib, aql bovar qilmaydigan uydirmalar haqida so'z yuritiladi. Ularda shuhrat, obro' qozonishga intilish g'oyasi ustuvorlik qiladi. Afsonalar miflardan ajralib chiqqan dastlabki epik asarlardir. Afsonalarda asosan g'ikoya qilish uslubi yetakchi hisoblanadi. Afsonalarda ham xalq o'zining orzu-umidlari va qahramonlari haqida hikoya qiladi. Ulardagi obrazlar jasorat va milliy g'urur timsoli sifatida nomoyon bo'ladi. Afsonalarda toponimik atamalarning ifodalanishi ularning muayyan hududda ro'y bergan voqea hodisalar haqida hikoya qilinishini ko'rsatadi. Afsonalar yordamida o'quvchi-yoshlar qalbida ezgulikka ishonch, g'urur, ajdodlar ishini davom ettirishga rag'bat kabi sifatlar shakllantiriladi.

Rivoyat arabcha so'z bo'lib – hikoya, qissa, afsona [5,383] degan ma'nolarni anglatadi. Rivoyatlar jamiyat a'zolari hayotiga yaqin bo'lib, ba'zan xalqning milliy qahramonlari, tarixiy shaxslar hayotini ham aks ettiradi. Ularning qilgan ishlari, qahramonliklari haqida hikoya qilinib, yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirishga hissa qo'shadi. Masalan To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Bobur haqidagi rivoyatlar bunga misol bo'la oladi. Rivoyatlarda tarixiy shaxslar hayotidan olingan hayratomus hikoyalar bayon qilinganligi uchun ham ular o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda hamda ularda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaviy imkoniyatlarining kengligi bilan alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan pand-nasihatlarida insoniylikning asosiy shartlari: To'maris, Alp Erto'nga, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik xalq qahramonlarining mardligi, jasorati, g'ururi o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari bilan uyg'un tarzda afsonalarning asosiy mazmunini tashkil etgan. Xalq tomonidan yaratilgan va etnopedagogik qadriyatlarga aylangan miflar, afsonalar, rivoyatlar, qo'shiqlar, maqollar, ertaklar, dostonlar, bolalar folklori namunalarida yosh avlodni g'ururli qilib tarbiyalash yetakchi g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham xalq og'zaki namunalari etnopedagogik qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Etnopedagogik qadriyatlarda o'zbek xalqining aql-idroki, pedagogik tafakkurini namoyon etadi.

O'zbek xalqining tarbiyaviy qarashlari etnopedagogik qadriyatlarni barcha turli, me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, urf-odatlar, an'analar va marosimlarda o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari etnopedagogik qadriyatlarning katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan turi hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy jarayonlarda xalq afsonalar, qo'shiqlar, ertaklar, maqollar, dostonlar, matallar, aytimlar, topishmoqlardan keng foydalaniladi.

Etnopedagogik qadriyatlarda millatning taqdiri, kelajagi bilan bog'liq bo'lgan pand-nasihatlar, ibratli fikrlar, ogohlantiruvchi, ehtiyotkorlikka undovchi o'gitlar o'z ifodasini topgan. Dostonlarda har bir inson yurt ravnaqi, xalq bahtu saodati uchun kurashishi lozimligi, bu yo'lda qahramonlik ko'rsatishi lozimligi uqtiriladi. Yurt yaxlitligi, xalqni birlashtirish, har bir yigitning burchi ekanligi ta'kidlanadi. Dostonlarda inson qadri, sha'ni, qadri, g'ururi uchun kurash asosiy masala hisoblanadi. Qahramonlarning hayoti yurt taqdiri bilan bog'liq tarzda ifodalanadi.

Etnopedagogik qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi namunalrida umuminsoniy fazilatlar ulug'lanadi. O'zbek xalqining o'ziga xos tabiati, milliy xususiyatlari, mentaliteti yaqqol namoyon bo'ladi. Doston va ertak qahramonlari o'rtasidagi munosabatlarning asosini do'stlik, adolatparvarlik, xalqsevarlik, g'ururlilik, o'zligini namoyon etish, ustoz-shogird, ota-ona, qarindosh-urug' munosabatlari, qabila va oila uchun kurash masalasi tashkil etadi.

O'zbek xalq maqollari ham katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ularda xalqning ko'p asrlik tajribasi natijasida vujudga kelgan tarbiyaviy o'gitlar o'z aksini topgan. Ertaklarda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, bolalarni g'ururli qilib tarbiyalashga bo'lgan intilish, mehnatsevarlik ulug'lanadi.

Masalan Alpomish va Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda mardlik, jasurlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur tarannum etiladi.

Ertak va dostonlar insonni mushohada qilishga undaydi. Uni o'qigan har bir o'quvchi o'z hatti harakatlarini tahlil qilib, ertak va doston qahramonlariniki bilan qiyoslashga intiladi. Ijobiy sifatlarni o'ziga qabul qilib, salbiy qahramonlardan nafratlanadi. Ijobiy qahramonlar singari pok e'tiqodli, g'ururli, Vatan va xalq taqdiri uchun dahldorlik hissiga ega bo'lishga harakat qiladi. Xalq qo'shiqlari ham maqollar kabi alohida tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Unda insonning holati, kayfiyati, borliqqa munosabati o'z ifodasini topadi. Masallar esa o'quvchilarning e'tiborini hayvonlar obrazi orqali o'ziga jalb etadi. Unda hayvonlar obrazi orqali shaxslararo munosabatlar aks ettiriladi.

Maqollarda so'zlar ko'chma ma'noda ham qo'llaniladi. Bu esa o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi. "Ona yurti – oltin beshiging", "Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga", "Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'yini cho'zar" kabi maqollar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilarni maqollar bilan tanishtirayotganda, unda ifodalangan haqiqiy ma'noni anglashlari uchun so'z ma'nolari ustida ishlash mashqlarini tashkil etish talab qilinadi. So'z ma'nolari ustida ishlash mashqlari o'quvchilarning xalq qo'shiqlari, dostonlar va ertaklarning mazmun-mohiyatini chuqur anglashlariga ko'maklashadi. O'quvchilar baxshilar tomonidan dostonlarni tinglaganda ulardan alohida zavq oladilar. Shuning uchun ham mashg'ulotlarda baxshilar tomonidan kuylangan dostonlar va ertaklarning audio yozuvlarini ularga eshittirish ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki ertak va dostonlar o'zbek xalqining ma'naviy boyligi sifatida o'quvchi yoshlarga estetik zavq bag'ishlab, ularda milliy g'urur bilan bir qatorda, zukkolik, hozirjavoblik, o'z-o'zini anglash milliy mansublikni his etish tuyg'ularini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsning madaniy-ma'naviy dunyoqarashi ko'p asrlar davomida uning e'tiqodini, hatti-harakatlari, jamiyatda tutgan o'rni, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini belgilovchi omil hisoblanadi. Milliy g'urur tuyg'usi rivojlanmagan shaxs uchun Vatan, millat, xalq, oila tushunchalari begona hisoblanadi. Shuning uchun ha ajdodlarimiz o'zlari yaratgan barcha etnopedagogik qadriyatlarda yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishni nazarda tutganlar. Ommaviy madaniyat hurujlari toboro keng tus olayotgan bugungi kunda yosh avlodni g'ururli qilib tarbiyalash zaruriyati yanada dolzarblashmoqda. Shu ma'noda ertaklar, dostonlar, xalq qo'shiqlari, maqollar yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish maqsadinin nazarda tutadi. Shuning uchun ham folklor namunalari ulkan pedagogik manbaa hisoblanadi.

Etnopedagogik qadriyatlarda o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi o'z ifodasini topgan. Ular yosh avlodni xalq hayoti, madaniyati, yutuqlari, kurashlari bilan tanishtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz etnopedagogik qadriyatlar vositasida yosh avlodni tarbiyalashda asosan quyidagi usullardan foydalanganlar:

- Voqea va hodisalarni an'anaviy bayon qilish;
- Og'zaki, badihaxonlik yordamida ifodalash;
- Folklor namunasida ifodalangan fikrni jamoa bo'lib ommaviy tarzda muhokama qilish;
- Folklor namunalarinin turli varianlaridan foydalanish;

XULOSA

O'zbek xalqi tomonidan yaratilgan etnopedagogik qadriyatlarning asosini milliy g'urur tarbiyasi tashkil qilib, o'quvchilarni o'zligini anglashi, Vatani, xalqi va yaqinlarini himoya qilishi, mardlik va jasorat ko'rsatishida milliy g'urur asosiy motiv sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.:2006. 671-b
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I Tom. - T.: Fan, 1960. – B. 357.
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. – T.: Sharq. NMAK, 2001. – B. 115.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.:2006. 118-b
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.:2006. 383-b